



**“TASDIQLAYMAN”
Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i**

Sh.A. Abdiyev

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi
kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi yig‘ilishi**

BAYONI №1

2023- yil 3- fevral

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.A. Abdiyev Boshqarma boshlig‘i
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig‘ining birinchi
o‘rinbosari, Komissiya a‘zolari,
boshqarma hamda shahar va tumanlar
statistika bo‘limi boshliqlari (ro‘yxat
bo‘yicha)

KUN TARTIBI

**“Korrupsiyaga qarshi kurashishda hamjihatlik zarur” mavzusida hamda
2022- yil yakuni bilan onlayn qabul qilinadigan yillik statistika hisobotlarni qabul
qilish va qayta ishlash jarayonida tizim xodimlarining korrupsiya holatlariga yo‘l
qo‘ymasliklarini yig‘ilish ishtirokchilariga tushuntirish to‘g‘risida.**

(Sh. Abdiyev, T. Sidikov, F. Eshonkulov, U. Sadirov, G. Muxamadiyeva, A. Nurmatov, J. Ulashev, Sh. Abdiyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig‘i Sh. Abdiyev so‘zga chiqib,
“Korrupsiyaga qarshi kurashishda hamjihatlik zarur” mavzusida ma‘ruzasi tinglandi.

Shuningdek, 2022- yil yakuni bilan onlayn qabul qilinadigan yillik statistika
hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlariga yo‘l
qo‘ymasliklari to‘g‘risida barcha bo‘lim boshliqlarini qattiq ogohlantirib o‘tdi va
kelgusida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan mas‘ullarga nisbatan tegishli ko‘rsatma
va topshiriqlarni belgilab berdi.

Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasi raisi
boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari T. Sidikov so‘zga chiqib, korrupsiyaga
qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish yuzasidan barcha
darajadagi xodimlar tomonidan statistika hisobotlarini onlayn qabul qilish va qayta
ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi subyektlarni ovora qilish, ularni asossiz
statistika idoralariga taklif qilish, to‘lovlar undirish, o‘zaro munosabatlarda sansalorlik,
ta‘magirlik, poraxo‘rlik va boshqa ko‘rinishdagi korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik
bo‘yicha barcha tizim xodimlarini yana bir bor xushyorlikka chaqirdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. "Korrupsiyaga qarshi kurashishda hamjihatlik zarur" mavzusida hamda 2022- yil yakuni bilan onlayn qabul qilinadigan yillik statistika hisobotlarni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik yuzasidan boshqarma boshlig'i Sh.Abdiyevning bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi raisi boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari T.Sidikovning korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish yuzasidan bergan ma'lumoti tizimda rahbarlik va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati v.b. (F.Eshonkulov):

boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo'minov